


«TASDIQLAYMAN»

“BIOKIMYO” AJ boshqaruv raisi

V. Xaydarov U.A.Xaydarov
«10» noabr 2021y.



“BIOKIMYO” AJ
xodimlarining
ODOB-AXLOQ
qidalari to‘g‘risidagi
NIZOM

Yangiyo 'l sh.

MUNDARIJA

I. UMUMIY QOIDALAR.....	3
II. JAMIYAT XIZMATCHILARINING XIZMATDAGI XULQ ATVORINING ASOSIY TAMOYILLARI VA QOIDALARI.....	4
III. MANFAATLAR TO‘QNASHUVI.....	6
IV. ODOB-AHLOQ QOIDALARINI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK.....	6

I. Umumiy qoidalar.

1.1. “BIOKIMYO” aksiyadorlik jamiyatni (keyingi o‘rinlarda jamiyat deb ataladi) va uning tarkibidagi xodimlarning odob-axloq namunaviy egallab turgan lavozimidan qat’iy nazar raxbariyat tarkibi va tarkibiy bo‘linmalari xodimlarining (keyingi o‘rinlarda jamiyat xizmatchilari deb ataladi) kasbiy odob-ahloqining umumiyligi tamoyillari va xizmatdagi xulq-atvorining asosiy qoidalari yig‘indisidan iborat.

1.2. Mazkur Nizomning maqsadi – Odob-ahloq qoidalari huquqbuzarlikning oldini olishga, ular sodir etilishining sabab va shart-sharoitlarini bartaraf etishga, xodimlarni yuksak huquqiy ong, O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonunlari va boshqa normativ-huquqiy xujjatlariga, fuqarolarning xuquq va erkinliklariga qat’iy rioya qilish ruxida tarbiyalashga yo‘naltirilgan.

1.3. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016 yil 2 martdagisi “Davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi xokimiyat organlari xodimlarining odob-axloq namunaviy qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 62-sonli qarori asosida ishlab chiqildi.

1.4. “BIOKIMYO” jamiyatiga ishga kirayotgan barcha shaxslar, ushbu Nizom talablariga asosan Odob-ahloq qoidalari bilan imzo qo‘ydirilgan holda tanishtiriladilar.

1.5 Ushbu Nizomda ko‘rsatilgan Odob-axloq qoidalari talablariga barcha xodimlar rioya qilishlari xamda kasbiy faoliyatini va xizmatdagi xulq-atvorini baxolash mezonlaridan biri xisoblanishi, Nizomda ko‘rsatilgan “qoidalar” tashkilot ichki xujjatlarga kiritilishi shart.

II. Jamiyat xizmatchilarining xizmatdagi xulq atvorining asosiy tamoyillari va qoidalari.

2.1. Jamiyat ishchi-xizmatchilari o‘z kasbiy faoliyatini quyidagi tamoyillari asosida amalga oshirishlari kerak:

- qonuniylik;
- fuqarolar xuquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarining ustuvorligi;
- vatanparvarlik va xizmat burchiga fidoiylik;
- davlat va jamiyat manfaatlariga sodiqlik;
- adolatlilik, halollik va xolislik;
- manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik.

2.2. Jamiyat ishchi-xizmatchisi- o‘z kasbini ardoqlaydigan va vazifasini bekamu ko‘st bajaradigan jismonan baquvvat, odobli, bilimli, tajribali, o‘z taqdirini Vatan taqdiri bilan bog‘langan, mamlakat hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlarning mazmun-mohiyati va maqsadini teran anglagan xolda uning faol ishtirokchisi sifatida o‘zini namoyon etadigan xodim tushuniladi.

2.3. Jamiyat ishchi-xizmatchilari quyidagilarga majbur:

- xizmat vazifalarini bajarishda davlat tamoyillari va talablariga qat’iy rioya etish xamda vijdonan, yuksak kasbiy darajada bajarish;
- rahbariyat tarkibining o‘z vakolatlari doirasida qabul qilingan qaror va buyruqlarini o‘z vaqtida va sifatli bajarish;
- o‘z faoliyatini qonun xujjatlarida va ichki xujjatlarida belgilangan lavozim vakolatlari doirasida amalga oshirish;
- o‘z xizmat vazifalarini bajarishga to‘sinqinlik qiluvchi biror-bir shaxsiy, mulkiy va boshqa manfaatlarning ta’siri bilan bog‘liq bo‘lgan xatti harakatlarga barxam berish;
- normativ-xuquqiy xujjat va idoraviy xujjatlarda belgilangan cheklashlar va taqiqlarga rioya qilish, o‘z xizmat vazifalarini og‘ishmay bajarish;
- korxonaga kelayotganda ishchi-xodimlar kiyinish qoidalariiga amal qilishlari kerak
- O‘zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlar xalqlarining urf-odatlari va an’analarni xurmat qilish, ijtimoiy barqarorlikka, millatlararo va konfessiyalararo totuvlikka ko‘maklashish;
- Jamiyatda xabarlarni va xizmat axborotlarini taqdim qilishning belgilangan qoidalariiga rioya etish.

2.4. Jamiyat ishchi-xizmatchilari korrupsiya xolatlariga qarshi kurashishi va ularning oldini olishga faol ko‘maklashish shart.

2.5. Jamiyat ishchi-xizmatchilari kasbiy faoliyati davomida o‘zlariga ma’lum bo‘lgan axborotning saqlanishi va maxfiyligini ta’minalash yuzasidan barcha choralarni ko‘rishlari shart, ularning oshkor etilganligi uchun ular qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javob beradilar.

2.6. Jamiyat ishchi-xizmatchilariga korxonada ish paytida ***ma’n etiladi:***

- sigaret chekish;
- spirtli ichimliklar ichish;
- qo‘lni qoringa qo‘yib yurish;
- quchoqlashib yoki o‘pishib salomlashish;
- ish vaqtida pista chaqish;
- duch kelgan joyda tuflash va h.k.

2.7. Jamiyat ishchi-xizmatchilari xizmatdan tashqari vaqtida umumiyl qabul qilingan odob-oxloq normalariga rioya etishlari, g‘ayriijtimoiy xatti-xarakatlarga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

2.8. Xamkasblar bilan so‘zlashayotganda bir-birlarining shaxsiyatiga tegadigan qo‘pol so‘zlar aytmaydi. Yoshi kattalarning so‘zini bo‘lmaydi, tengdoshlari va kichiklarning so‘zini oxirigacha tinglaganidan so‘ng o‘z fikrini aniq va to‘liq bayon etadi.

2.9. Raxbar bilan suxbatlashganda undan oldin so‘zlamaydi va gapini diqqat bilan eshitib, keyin javob qaytaradi. O‘z fikr-mulohazasini raxbar so‘zini tugatganidan so‘ng bildiradi.

2.10. Jamiyat xodimlari xushmuomala, iltifotli, odobli, e’tiborli jamoasi va xamkasblari bilan munosabatda sabr-toqatli bo‘lishi, ularni hurmat qilishi shart. Raxbarlar, boshliqlar o‘ziga bo‘ysinuvchilarga va xodimlarga nisbatan qo‘pollik qilmasligi, ularning sha’ni va qadr-qimmatini kamsitmasligi, ularga asossiz psixologik va jismoniy ta’sir ko‘rsatish holatlariga yo‘l qo‘ymasligi kerak.

III. Manfaatlar to‘qnashuvi.

3.1. Jamiyat ishchi-xizmatchilari o‘z xizmat vazifalarini bajarishda manfaatlar to‘qnashuviga sabab bo‘ladigan shaxsiy manfaatdorlik xolatlariga yo‘l qo‘ymasliklari kerak.

3.2. Jamiyat ishchi-xizmatchilarining tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi taqiqlanadi.

3.3. Jamiyat ishchi-xizmatchisi lavozimga tayinlanayotgan va xizmat vazifalarini bajarayotganda o‘zining xizmat vazifalarini zarur darajada bajarishiga ta’sir ko‘rsatadigan yoki ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan shaxsiy manfaatdorligining mavjudligi yoki mavjud bo‘lishi imkoniyati to‘g‘risida ma’lum qilishi shart.

IV.Odob-ahloq qoidalarini buzganlik uchun javobgarlik.

4.1. Jamiyat ishchi-xizmatchisi tomonidan Odob-ahloq qoidalarining buzilishi uni qonun xujjatlarida belgilangan tartibda javobgarlikka tortish uchun asos bo‘lishi mumkin.

4.2. Jamiyat ishchi-xizmatchisi tomonidan Odob-ahloq qoidalari normalarining buzilishlari maxsus tarkibiy bo‘linma yoki Odob-ahloq xay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi.

4.3. Odob-ahloq xay’ati, maxsus tarkibiy bo‘linma mavjud bo‘lmagan taqdirda, xizmatchi xodimlaridan kamida 5 (besh) kishidan iborat tarkibda tuziladi. Odob-ahloq xay’atining maqsadi, vazifalari, funksiyalari, xuquqlari, javobgarligi va uning faoliyatini tashkil etishning boshqa masalalari jamiyatning rahbariyati tomonidan tasdiqlangan Odob-ahloq xay’ati to‘g‘risidagi Nizomda belgilanadi.

4.4. Odob-ahloq qoidalarining buzilishi holatlarini maxsus tarkibiy bo‘linma yoki Odob-ahloq xay’ati tomonidan ko‘rib chiqiladi, natijalari bo‘yicha to‘g‘ri xulosalar chiqariladi. Raxbarga ko‘rib chiqish uchun beriladi va xodim tomonidan sodir etilgan qoida buzilishlar asosli bo‘lsa, Odob-ahloq xay’ati xizmatchiga nisbatan Odob-ahloq qoidalarining buzilishiga yo‘l qo‘ymaslik to‘g‘risidagi ogohlantirish bilan cheklanishi mumkin.

“Komplaens” xizmati boshlig‘i:

A.R.Mansurov